



SHAYBONIYXONNING MOVAROUNNAHRDA HOKIMIYATNI O'Z QO'LIGA OLISHI

Umidjon Sotivoldiyev Xakimjon o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Volga bilan Orol dengizi orasida yashovchi turk-mo'g'ul qabilalarida ham mavjud, ular Jo'ji sulolasidan to'qqizinchi hukmdor bo'lgan O'zbekxon ismiga nisbat berib, o'zlariga bir siyosiy qo'shma nom o'zbek nomi qabul qilganlar. O'zbekning lug'aviy ma'nosi "shaxsan o'ziga mustaqil xo'jayin", erkin demakdir. Shunisi diqqatga sazovorki, bu so'z muhim ma'noli unvon ismi bo'lib, eski mojarlarda (vengerlarda) ham uchraydi. Shu mazmunda 1150-yillarga oid hujjatlarda ham bu ibora mavjud. Abulg'ozixon o'zining «Shajarai turk» asarida ular haqida shundoq naql qiladi: «U O'zbekxon — bu har kimni xizmatiga qarab hurmat va taqdir etar edi. U o'zining xalqini islom diniga kirgazdi va u orqali ko'p odamlar islom diniga musharraf bo'ldilar. Shu bois Jo'ji xalqi o'ziga o'zbek ismini qabul etdi va bu nom unga oxirgi zamongacha qolajakdir. Hammer haqli ravishda aytganidek;” O'zbekxon o'z xalqining mahdiysigina emas, balki qipchoq taxtiga ziynat bergan to'rt ulug' hukmdorning (keyingi uchasi — Botu, Barka, To'xtamish) uchinchisidir”¹. Arab sayyohi Ibn Battuta tarafidan zikr etilgan hamda temuriylar hokimiyati vaqtida zohir bo'lgan bu nom O'zbekxonning o'z davrida ham, undan keyingi yillarda, ya'ni uning nasllari hukmronlik qilgan paytlarda ham bir muhim vazifani bajarmadi. Faqat 150 yildan so'ng, kuchli Oltin O'rda davlati to'rt qismga bo'linib, Rossiyani tatar hokimiyati hukmi ostidan halos etgan Ivan Vasilevich (1488-1545)ning kurashi oqibatida yuqori Volgada Jo'ji avlodining hukmronligi tugatildi. Shundan so'ng biz o'zbeklarning hokimi Abulxayrxonning Saroy hokimiyatiga itoat qilishdan bosh tortganini, xonlik oliy huquqidan foydalanuvchi

¹ Barakayev "Buxoro tarixi" - T.: "O'qituvchi". B.64.



shahzodalar ham tobelar orasida bo'lganini ko'ramiz. Shimoldagi xristian dunyosi islom hukumati ustiga qilgan tajovuz vaqtida Abdulxayrxon o'zining chodirlari va ko'chmanchi xalqi bilan asta-asta sharqiy sahro viloyatlari ichiga chekinishga majbur bo'ldi. Ko'k O'rdaning so'nggi xoni Kichik Muhammad idorasi vaqtida u xiyla ahamiyat kasb etib, shu darajaga yetdiki, temuriylardan Abusaid, Muhammad Jo'ji, Husayn Boyqaro, yuqorida bayon qilinganidek, undan himoya so'radilar. Kichik Muhammadning inqirozidan so'ng Qipchoqda Jo'ji taxti butunlay yemirildi. O'zbeklar g'arbdagi Saroy va janubdagi Movarounnahrda, rivojlangan Islom madaniyatidan uzoqda yashar edi. Ular o'troq hayotga avvaldan ko'nikib, Temuriylarning yuksak madaniyatga intilishlari tufayli noziklashib, eski turklarcha jangovarligi sustlashib qolgan qardoshlariga nisbatan Turon lashkariga xos qattiq qo'llikni o'zlarida ko'proq saqlagan edilar².

Islom dini bular orasida nomiga tarqalgan edi, o'zbek xalqining o'zi kabi turmush tarzi ham turk-mo'g'ul xalqining qorishib ketgan urf-odatlaridan iborat edi. Amu va Sirdaryo bo'ylaridagi turklar tadrijan til va adabiyot birligi va Eron hayotining nozik jihatlari bilan tanish bo'lgan bir paytda o'zbeklar hanuz qo'y va ot terilariga sorilgani holda go'yandorlik bilan mashg'ul edi. O'zbeklar doimiy o'troq yashay boshlaganlaridan keyingina o'zlarining avvalgi qo'polliklarini tashladilar. Ilk bor chig'atoy nomi bilan Movarounnahrning madaniyatli, o'troq turkiy xalq, o'zbek nomi bilan esa shimol-g'arbdagi madaniyatsiz sahro aholisi atalar edi. Bu munosabat keyinchalik butunlay yoki yangi zamonga qadar aksincha anglashiladigan bo'ldi. Ya'ni, o'zbek avvalgi Chig'atoy o'rnini oldi, qirg'iz yoki qozoq deb madaniyatsiz turklarni atay boshladilar. Abulxayrxon o'zi yashab turgan davr ahvolini juda yaxshi bilar edi. U Markaziy Osiyoning o'sha vaqtdagi ahvol-sharoitini e'tiborga olgani va imkoniyati yo'qligini bilgani uchun istilo fikriga berilmadi, aksincha, bir-birlarining qoniga botib, janjallashib yotgan Temur avlodlariga ba'zan-ba'zan yordam berish bilan qanoatlandi. U faqat Abusaid foydasi uchun qarashmadi. Manuchehr Mirzo va Sulton Husayn Boyqaroni (1457-1507) quvvatladi. Abulxayrxonning o'zbeklari

² B. Ahmedov "O'zbek ulusi" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. "nur" T. 1992.65 b.



doimo ko'p o'ljalar bilan qaytar edilar. Uning qirq yilga yaqin hukm surgan hokimiyati sahro xonligining eng shonli davri hisoblanadi.

O'zbeklar o'zlarining e'tibor va ishonchlarini Abulxayrning nabirasi Shahzoda Muhammad Shayboniyga (1451-1510) qaratgan edilar, uni Shohbaxt deb atardilar. Bu zot o'zining yoshligiga qaramasdan istiqbol uchun eng porloqumidlar tug'dirgan edi.

Shayboniy (1451-1510) - otasi Budoq Sulton bilan onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabekning himoyasida yashadi. Qorachabek bu Shahzodaga kamoli sadoqat bilan xizmat qildi. Shayx Haydarning vafotidan so'ng Qorachabek xiyla ulg'aygan bu yetim Shahzodalarni olib Abulxayr oilasining dushmanlaridan Sirdaryoning quyi taraflariga qochib ketishga majbur bo'ldi. Shayboniy (1451-1510) bu yerdan qaytib kelgach, ulug' bobosi o'rdusining turli taraflarga tarqalib ketgan kishilarini muqaddas qon qasosni olish bahonasida atrofiga to'pladi. Kerakligicha tayyorgarlikdan so'ng, sulolaning yo'qolgan shon-shavkatini qaytarmoqqa ahd etdi. Xususan, Abulxayrxonga olchoqlarcha xiyonat qilgan va ayni paytda Sirdaryoning yuqori oqimi tomonidagi bir o'rmon etagida yashayotgan Burga Sultondan qasos olish qasdiga tushdi. Shayboniy (1451-1510) kuch to'plab, tayyorgarlik ko'rguncha Burga Sulton bilan riyokorona tarzda do'st tutindi. Tayyorgarlik oxiriga yetgach, insondan-da qasoskorroq, sahroga haqiqiy bir dahshat soluvchi uzoq qish kechalaridan birida, sodiq uch bahodiri bilan dushmani Burganing saroyiga hujum qildi. Uning oila a'zolari va qarindoshlaridan ko'p kishini qatl etdi. Qochgan Burga Sulton ham o'limdan qutulib keta olmadi, Shayboniy (1451-1510) uni toptirib, qatl ettirdi. Mazkur muvaffaqiyatli hujumdan keyin yosh shahzoda xiyla kuchaygan o'zbek suvoriylariga boshliq bo'ldi³. Ularning pano'hida zo'r janglarda qatnashish uchun imkoniyat topdi. Markazda ahvol shu tarzda kechgach, endilikda temuriylar bilan to'qnashmaslikning iloji yo'q edi. Bu davrda Samarqand taxtining egasi Abusaidning o'g'li Sulton Ahmad (1694-1494) edi.

³ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar" "O'qituvchi". - T.: 1994. B.375.



Mamlakatning shimoliy chegarasi noibi esa Qushliqxon o'g'li Majid tarxon edi. Shayboniy undan o'z xizmatiga olishni iltimos qildi, Majid tarxon rozilik berdi, oylik ham belgiladi. Lekin Majid xavfdan qutulish uchun ularni Buxoro hokimi Abdulali tarxonga yubordi. Buxoroning mutlaq hokimi Abdulali tarxon saroyi ziynat va hashamat jihatdan o'zi tobe hukmdorning saroyidan kam emasdi. U o'zbeklarni yaxshi qabul etdi va mo'g'ullar shimoliy- sharqdan hujum qilganda, ulardan foydalandi. Turkistonning shimoliy viloyatlaridagi imtiyozli hokimlar (tobyolar) isyon ko'targan paytda, Abulxayrning vorislaridan isyoni bostirish uchun foydalanildi. Lekin o'zbek shahzodalari bu yerni o'zlarining ona-vatanlaridek his etganlari uchunmi yoki to'plagan kuchlari ta'siri bilanmi, xullas, har qanday qurolli xizmat uchun to'langan oddiy maoshga qanoatsizlik qila boshladilar. Shu bois O'tror, Sovron, Sig'noq shaharlarini ularga berib, rozi qilish lozim ko'rildi. Keyinchalik g'oyatda kengayib ketgan Shayboniy (1451-1510) mamlakati shu tarzda ta'sis etildi.

O'zbek shahzodalarga ularning ko'pgina tarafdorlari va botirlik harakatlarini sevuvchi sahro farzandlari orqa tomondan yordam etgani maydonga chiqib kelayotgan Shayboniylar bilan inqirozga uchrayotgan temuriylar o'rtasidagi tinch munosabatning uzoq davom etmasligi tabiiy hol edi. To'qnashuvning sababi tez topildi. Sulton Ahmadning tiriklik vaqtidayoq Shayboniy kelajakni o'ylagan va noib Majid tarxonga qarashli Sirdaryoni jabr ko'rgan sifatida tortib olgan, endilikda avvalgidan maoshga xizmat qilishdan voz kechgan shundan buyon Temur sulolasining qo'rqinchli dushmaniga aylangan edi. Yosh ko'chmanchi xonlarning g'oyatda kuchaygan jangovar askarlik ruhi ularning o'zaho nizoyu janglari uchun kifoya edi, bundan tashqari, shu zamonda Movarounnahrning nihoyatda chuvalashib ketgan siyosiy hayoti, beklarning boshboshdoqliklari kabi holatlar Shayboniyning (1451-1510) mamlakatni istilo eshitishga sabab bo'ldi. U 905/1500- yilda birinchi marta Samarqandga tajovuz qildi. «Shayboniynoma» muallifining bayoniga qaraganda, Shayboniyning birodari Sulton Mahmud Boysunqur Mirzo zamonida



ham Jizzax atrofiga hujum qilib, katta talofat, bilan chekinishga majbur bo'lgan⁴. Xabarsiz hujum boshlagani uchun Shayboniy birodariga tanbeh bergan va mag'lublik intiqomini olish uchun ming yigiti bilan darhol Sirdaryoni kechib o'tgan. Ammo uning bu yurishi askarlar hiyonati tufayli muvaffaqiyatsiz chiqqan. Shayboniy majburan orqaga qaytgan⁵.

Shayx Mansur Shayboniyning piri edi. U pirining: «O'rtasidan emas, chetlaridan boshlamoq lozim» degan ramziy so'zlariga muvofiq mamlakatlarni istilo qilish fikriga tushdi. Avvalo u atrofdagi turk bekklariga murojaatnoma yuborib, ularni temuriylar hokimiyatini butunlay tugatishga da'vat etdi. Bunga ayni fursat kelganini anglatdi. Temuriylar hokimiyatning tayanchlari nechog'li chirigan, asosi bo'shashganiga qaramay, Samarqand hukmdoriga sodiq turklar hamon ko'p edi. Shayboniy har holda avvalo bularni tamoman o'z tarafiga jalb qilishni lozim ko'rdi va bunga erishdi. Bular orasida eng muhimlari- Ko'chim Sulton, Suyunchxo'ja Sulton, Hamza Sulton va Mahdi Sultonlar edi. Ana shundan keyin u o'zining avvalgi niyatini amalga oshirib, kuchli tayyorlangan qo'shin bilan Samarqand ustiga yurdi. Bobur bu yerdan Andijonga qaytib ketgach, davlat boshida qolgan Sulton Ali nomigagina hokim edi. Ulug' bobolari 400 yildan buyon Samarqandda Shayxulislomlik qilib kelayotgan qozi kalon Xoja Abulmakorim (asl nomi Xo'ja Yahyo) haqiqiy hokim edi⁶. Lekin ularning har ikkovi ham rahbarlik ishlariga uquvsiz edi, mamlakatga tahdid solayotgan xavfni daf etishga qodir emasdi. O'n kunlik qamaldan keyin Shayxzoda eshigidan chiqib qilingan hujum muvaffaqiyatli qaytarilgach, Shayboniy Chorraha darvozasidan kirib, Bog'i navga borib yetdi va dushman lashkarini ham o'z izniga soldi. Urush kun o'rtalarida boshlandi. Shayboniy o'linga tik boqib, urushda shaxsan o'zi ishtirok etdi. Butun tun bo'yi har ikki tomondan qirilish davom etdi. Ertasi Shayboniyga xizmat qilgan Abdulali tarxonning o'g'li Boqi tarxon Samarqandga yordamga keldi, uning Dabusiya istehkomi yonida qarorgoh qurgani haqida xabar olindi. O'zbeklar shu munosabat bilan Samarqandni

⁴ "Shayboniynoma" asarining muallifi Muhammad Solih bo'lib, u Shayboniyxon hayoti va olib borgan yurishlari haqida she'riy uslubda bayon qiladi. Asar 1505-yildan keyin yozilgan.

⁵ Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G'ofur G'ulom, 1990. B 56.

⁶ O'sha manba. B. 57-58



qamaldan bo'shatib, tez sur'atda Buxoroga chekindilar. O'zining butun yordamchi askarlaridan ayrilib qolgan Buxoro uchun o'zbeklarga shartsiz taslim bo'lishdan o'zga chora yo'q edi. Shayboniy Buxoroni o'zining bosh qarorgohi qildi. Onasi bilan oilasini shu yerdagi saroyga joylashtirgach, lashkari bilan Qorako'l ustiga yurdi. Chunki bu yer birinchi marta zabt etilgach, Boboy Sulton raisligida qoldirilgan muhofaza qismlari shiddat bilan ag'darib tashlangan edi. Shu bois uni yangidan zabt etishga ehtiyoj bor edi. Holbuki, o'zbek harbiy qonunining butun shiddati bilan isyonkorlarga jazo berilganidan keyingina Samarqandni qayta qamal qilish mumkin edi.

Samarqand yangidan qamalga olindi, shahardagilar to'qqiz oy qattiq qarshilik ko'rsatdi. Agar amalparast Xo'ja Abulmakorim bilan xon Sulton Ali orasidagi ixtilof ochiqdan-ochiq dushmanlikka o'tmasa, ehtimol, mustahkam bu qal'ani egallash muddati yana biroz orqaga surilishi mumkin edi. Bu ziddiyatli ahvoldan yaxshigina voqif bo'lgan Shayboniy Samarqand hukmdori Sulton Aliga: «Xoja vasiyligida yashashdan hali ham to'ymadingmi, Abulxayr xonadonidan inoyati rabboniya bilan to'g'ilmish yulduzni tabriklab, hayotingni u bilan do'stlik yo'lida izlashga haliyam vaqt yetmadimi?» mazmunida maktub yozdi⁷. Shayboniy o'zining bu do'stlik taklifi yaxshi niyatda yozilganini ko'rsatmoq uchun Sulton Alining onasini o'ziga xotinlikka so'radi. Sulton Alining onasi bunga rozilik berdi. Bu ishlar shu darajada maxfiy qilindiki, bir juma kuni Shayboniy Muhammadxon qamaldagi Samarqand shahriga bir tarafdin kirib keldi. Bundan mutlaqo xabarsiz Xo'ja Abulmakorim shaharning ikkinchi tarafidagi masjidda o'tirardi. Bu voqea 906 (1500) yilda sodir bo'ldi. Shoshib qolgan Samarqand aholisi o'z taqdiriga tan berdi. O'zbek xoni bilan Sulton Ahmadning tul xotini Zuhra begim⁸ o'rtasida nikoh o'qitildi. Shundan so'ng Sulton Ali tezda vafot etdi.

Samarqand taxtini egallashi bilanoq Shayboniyni Xuroson yaylovlari jalb eta boshladi. Lekin u yerda, Hirot taxtida kuchli va shavkatli Mirzo Husayn Boyqaro o'tirardi. Shayboniyni holidan xabardor edi. Shu bois u Boyqaroga to'g'ridan-

⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т. Шарқ, 2000. - Б.181.

⁸ О'sha manba. Б.182



to'g'ri dushmanlik harakatini boshlashdan tortinib, Xurosonning Mirzo Husayn hokimiyatiga tobe, lekin zaif joylariga tajovuz boshladi. Bularning birinchisi Balx edi, unda Shahzoda Badiuzzamon Mirzo Husaynga qarshi isyon bayrog'ini ko'targan edi. Ikkinchisi Sulton Ahmadning (1469-1494) sobiq vaziri Xisravshoh mulkiga qarashli yerlar edi, Shayboniy (1451-1510) o'z homiysining o'g'illarini inkor etish yo'li bilan chetlashtirganidan keyin, Hisor, Xatlon, Qunduz, Badaxshonni o'z mamlakatiga qo'shdi. Shayboniy Mirzo Husayn Bonqaro bilan urushga kirishishdan oldin yurtining orqa tomonlarini tahlikadan asrash, ya'ni Boburning (1483-1530) mo'g'ul qarindoshlari Xonika Sulton va Olacha Sultonlar bilan jang qilib, ularni yengishni lozim ko'rdi. Sirdaryoning o'ng sohilida, Shohruxiya va Toshkent atroflarida ularning mo'g'ul va qalmoqlardan iborat xiyla ko'p lashkarlari mavjud edi. Qisman hasad, qisman o'zlarining omadsiz qardoshlari Boburning (1483-1530) o'chini olish uchun ular turli yo'llar bilan o'zbeklarga zarar keltirar edilar⁹.

Nihoyatda sovuq qish kuni Shayboniy (1451-1510) po'stinlarga o'ralgan bir qo'shin bilan shimolga qarab yurish qildi. Birodarlari Sulton Mahmud, Temur Sulton bilan birgalikda esa jasur o'zbeklardan iborat olti ming kishilik bir ilg'or (avangard) tuzilsa ham, ammo qattiq sovuq, ehtimol, bulardan ham jangovar mo'g'ullar ularning harakatiga mone bo'lgani uchun, hech narsaga erisha olmadilar va bo'z sahrolarda Shayboniyning qalbidagi vahshiy urshqoqlik harorati so'nib, orqaga, Samarqandga qaytdi, Mo'g'ullar uni O'ratepagacha ta'qib etdilar. Garchi bu shahar bultur yozda qayta zabt etilib, Xonika Sulton bilan bitim tuzilsa-da, haqiqatda bu sulh emas, balki tadbir edi. Chunki Shayboniy Xisravshoh mulkiga bostirib kirgandek, mo'g'ullar yana Shayboniyga qarshi dushmanlik harakatini boshladilar. Bu gal ular chegaradagi joylarga emas, balki Shayboniyning Ho'qanddagi noibi Tanbal Sulton yeriga ham hujum qildilar. Tanbal esa Shayboniydan yordam kutishga haqli edi, chunki u, birinchidan, o'zining fitnasi bilan Boburning taxti yo'qolishiga sababchi bo'lgan bir kishi edi, ikkinchidan, o'zbek hujumiga qarshi turadigan kuchga ega emasdi. Shayboniyning (1451-1510) hozirgi xorijdagi tajovuzlaridan voz kechib, butun

⁹ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.375.



kuch-quvvatini Turon ichidagi o'z dushmanlariga qarshi qo'yish uchun boshqa sabablar ham yo'q emasdi. Shayboniy o'z tabiatiga ko'ra jasur va shuhratparast edi, agarda Sirdaryo bilan G'o'bi cho'li orasida yashovchi mo'g'ul va qalmoqlarga suyangan Xonika bilan temuriylar bir ittifoq tuzsalar, o'zbeklarning butun reja va maqsadlarini barbod etishlari aniq edi. Shayboniy buni juda yaxshi anglagani uchun 911/1505- yilda o'zining butun harbiy qudrati bilan avvalo Shohruxiya ustiga yurish boshlab, uni qamal qilishni amr etdi. So'ngra Sirdaryo bo'yiga yurib, Axsiga qadar bordi, undan o'n besh mil masofada mo'g'ullarning birlashgan va jangga hozir lashkari turardi. «Shayboniynoma» muallifi har ikki taraf lashkarining o'ziga xos ayrim belgilarini hamda o'zbeklarning g'alabasi bilan tugagan bu qonli janglarning eng kattasini g'oyat jonli va maroqli bir suratda tasvirlaydi¹⁰.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.375
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т. Шарқ, 2000. - Б.181.
3. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Т.: G'ofur G'ulom, 1990. В 56.
4. B. Ahmedov “O'zbek ulusi” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. “nur” Т. 1992.65 b.

¹⁰ Rahmonov V, Ermatova Y. “Tarixi Rashidiy” “Sharq, - Т.: 2010. В. 155.